# Ellikqal’a tumanida paxta-to‘qimachilik klasteri negizida 500 dan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratildi

Ellikqal’a tumanida 10740,0 gektar yer maydonga paxta ekilib, 25,8 ming tonna paxta hosili olish imkoniyati mavjud. Bugungi kunda tumanda faoliyat ko‘rsatayotgan “Bo‘ston klaster” MChJ paxta-to‘qimachilik klasteri negizida “Bo‘ston mega tekstil” MChJ, “Bo‘ston optimal tekstil” MChJ va “Ellmed” MChJ tashkil qilingan.

Image not found or type unknown

Image not found or type unknown

“Bo‘ston mega tekstil” MChJ tomonidan 5000 tonna ip kalava va 10000 pgm jinsi matosi ishlab chiqarish” loyihasi ishga tushirildi. Bugungi kunda korxonada 400 ta yangi ish o‘rni yaratildi.

“Bo‘ston optimal tekstil” MChJ tomonidan joriy yilda 73,4 mlrd so‘mlik ip kalava va sochiq ishlab chiqarishni tashkil qilish loyihasi amalga oshirildi. Buning natijasida 100 dan ortiq ish o‘rni yaratildi va qo‘shimcha 200 ta yangi ish o‘rni yaratiladi.

Image not found or type unknown

Image not found or type unknown

Estoniyalik investorlar bilan hamkorlikda "Ellmed" qo‘shma korxonasi tashkil qilinib umumiy qiymati 2,5 mln AQSH dollari bo‘lgan “tibbiyot binti va paxta momig‘i ishlab chiqarish” loyihasi 2021 yilda ishga tushirilishi rejalashtirilgan. Mazkur loyiha negizida

200 ta yangi ishchi oʻrinlari yaratiladi.

QR Vazirlar Kengashi Axborot xizmati